

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODKORLIGINI KOMPETENTLI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Viloyat Zokirovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti II bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatini kompetentli rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Ijodkorlik — zamonaviy pedagogning muhim fazilati bo'lib, bu sifat o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Maqolada o'qituvchi shaxsini shakllantirishda ijodkorlik va kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish usullari, innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlarini qo'llash zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Bo'lajak o'qituvchilar, ijodkorlik, kompetensiya, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, ta'lim texnologiyalari, amaliy ko'nikmalar, innovatsion usullar, shaxsiy rivojlanish.

A.V.Mudrikning fikricha, “ijtimoiylashtirish” (“sotsializatsiya”) atamasining muallifi amerikalik sotsiolog F.G.Giddings hisoblanadi. U 1887 yilda o'zining “Ijtimoiylashtirish nazariyasi” (“Teoriya sotsializatsii”) kitobida bu atamani hozirgi zamonaviy ma'nosiga yaqin ma'noda ishlatgan: “individdning ijtimoiy tabiati va xarakterining rivojlanishi – insoniy materialni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir”.

“Ijtimoiy kompetentlik” tushunchasining ko'p o'lchovliligi, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, uning ta'lim va tarbiya jarayonida sust qo'llanilishini E.F.Zeer terminologik nuqtai nazardan “ziddiyatli voqeliklar” sifatida tavsiflaydi hamda ularni “inson sub'ektiv hayotining real hayot bilan, ob'ektiv voqelik bilan nomutanosibli, qarama-qarshiligi” sifatida baholaydi.

Shaxsning ijtimoiy kompetentligi shaxsning yaxlit ijtimoiy sifati bo'lib, u ijtimoiy haqiqatni aniq qadrlashni, harakatga ko'rsatma sifatida aniq ijtimoiy bilimlarni, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi boshqarish va qoidalar yaratish kabi sub'ektiv imkoniyatlarni o'z ichiga olgan, hayotning asosiy sohalariga (ijtimoiy institutlar, me'yorlar va munosabatlar tizimida) tegishli madaniyat, axloq va qonun darajasiga muvofiq ravishda ijtimoiy texnologiyalarni amalga oshirish qobiliyatidir.

Siyosiy va ijtimoiy tanlov qobiliyati, krishuvchanlik va bag'rikenglik ta'limning kutilayotgan rivojlanishida shaxsning ijtimoiykompetentligini taqozo qiladi.

Ijtimoiy texnologiya (ijtimoiy tashkilotlar), moddiylikdan farqli o'laroq, odamlar o'rtasidagi munosabatlardan, bunday munosabatlarni muvofiqlashtirish va bo'ysunishidan hosil bo'ladi va odamlar ongida tegishli ma'nolar tizimi bilan ifodalanadi. Uni tashqi hislar orqali idrok etib bo'lmaydi. Masalan, davlat bu fuqarolarning birgalikda yashash irodasini tashkil etish shaklidir. Ushbu umumiy iroda Konstitutsiya va butun keyingi huquqiy tizim bilan tartibga solinadi. Shunday qilib,

davlat - bu fuqarolar va mansabdor shaxslarning vazifalari va huquqlari asosida boshqariladigan odamlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi; u juda sezgir va uni faqat ong orqali anglash mumkin. Binolar, jihozlar va rasmiy kiyinish faqat fuqarolar o'rtasidagi me'yoriy uyushgan munosabatlarning tashqi ifodasidir. Fuqarolar ongli ravishda o'z vazifalari va huquqlariga muvofiq harakat qilsalar, davlat faoliyat ko'rsatishi mumkin; bu odamlarning vijdonliligi, ixtiyoriy sadoqati va fuqarolarning qonunga bo'ysunishi bilan o'z salohiyatini saqlab turadi.

Ijtimoiy munosabatlar va normalar, tashkil etish va boshqarish tizimining sub'ekti bo'lish uchun fuqarolar tegishli gumanitar va ijtimoiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak. Bunday tayyorgarlik, kasbidan qat'i nazar, har bir fuqaro uchun texnologik jihatdan zarurdir, bunda uning nafaqat professionalligi, balki ijtimoiy kompetentligi bo'yicha savol tug'ulishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik - bu xodimning bilimlari, qobiliyatlari va malakalarining kasbiy va xizmat vazifalari va huquqlariga muvofiqligini anglatadi. Ammo xodim, o'z kasbidan tashqarida ham ma'lum bir jamoaga mansubligiga qarab, bular: oilada, qarindoshlar va do'stlar doirasida, jamoat tashkilotlarida, fuqaroligi, millati va boshqalarda ma'lum ijtimoiy maqomlarga ega. Bunday maqomlar shaxs uchun kasbi kabi muhimdir.

Shaxsiy muloqot darajasida ijtimoiy kompetensiyaning ishonchli ta'rifi Z.A.Aksyutina tomonidan berilgan: "O'zgalar bilan birgalikda harakat qilish istagi va ko'nikmasi, o'ziga va o'zaro muloqot qobiliyatiga bo'lgan ishonch, hamkorlik qilish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yengish qobiliyati".

Ko'rib chiqilgan qarashlar, fikrlar asosida, biz ijtimoiy kompetentlikka bilim, malaka va fazilatlar tizimi sifatida qaraymiz hamda shaxs tomonidan jamiyatda o'z funksiyalarini huquqiy, madaniy, kommunikativ, kasbiy, oilaviy darajada turli davlat tizimlari va tashkilotlari bilan birgalikda hal qilishini tushunamiz.

"Ijtimoiy-madaniy kompetentlik" tushunchasi ijtimoiy-madaniy yondashishga asoslangan bo'lib, u ijtimoiy yondashuvdan ancha keyin paydo bo'lgan. Ijtimoiy-madaniy yondashuv metodologik yondashuv sifatida o'z nomini va asoslanishini tizimlilik prinsipi asosida olgan, uning mohiyati jamiyatni inson faoliyati jarayonida yaratilgan va o'zgartirilgan madaniyat va ijtimoiylikning birligi sifatida ko'rib chiqishga urinishdir. Ushbu birlik, tizimli yondashuv tamoyillariga ko'ra bir butunni tashkil qiladi va uning xususiyatlarini qismlar xususiyatlaridan chiqarib bo'lmaydi. Shaxsning o'zi ijtimoiy-madaniy yondashuvda jamiyat ham munosabatlar tizimi va madaniyat, qadriyatlar va me'yorlar to'plami bilan bog'liq, deb hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-madaniy yondashuv turli gumanitar fanlar: sotsiologiya, pedagogika, psixologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqila boshlandi. Ijtimoiy-madaniy yondashuvning shakllanishiga katta hissa qo'shgan olimlar: Pitirim Sorokin, Robert Merton, Talkott Parsons va Lesli Uaytlar sanaladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvning asosiy prinsipi shundan iboratki, unda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning fundamenal tamoyillarini boshqasiga almashtirish insoniyat tarixidagi boshqaruv shaklining o'zgarishiga qaraganda ham eng muhim hodisa hisoblanadi, chunki jamiyatdagi muhim o'zgarishlar "inson madaniyatida fundamental va

davr inqilob”iniboshidan kechiradi.

P.Sorokin insoniyat olamining uchta asosiy tarkibiy qismini – shaxs, jamiyat va madaniyatning davomiyligini nazarda tutadi, ular bir-birini inkor qilmaydi, lekin bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir, deb tushuntiradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ahamiyati va mazmunini aniqlashda faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, o‘qituvchilarning fikrlarini, xususan, E.Giddensning nuqtai nazarini hisobga olish zarur. Ushbu olim madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammolarini ko‘rib chiqqan va ularning ajralmas aloqalari va doimiy o‘zaro ta’sirini quyidagicha ta’kidlaydi: “Bizning shaxsiyatimiz va dunyoqarashimiz biz yashayotgan madaniyat va jamiyatning eng kuchli ta’siridadir. Shu bilan birga, biz kundalik harakatlarimiz bilan o‘z faoliyatimiz o‘tkaziladigan madaniy va ijtimoiy sharoitlarni faol ravishda qayta yaratamiz va o‘zgartiramiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaev O.Q. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari misolida). P.f.f.d (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2019 y. – B. 28-42.
2. Melibaeva R.N. Talabalar tafakkurini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari. P.f.f.d. diss avtoreferat. - T.: 2018 y. – B. 30-46
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psix. fan. dok. dis. – T.: O‘zMU, 2005. – 391 b.
4. Rasulov A.I. O‘qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida talabalar bilan o‘zaro munosabat darajalari: Psix. fan. nom. ... dis. – T.: O‘zMU, 2001, – 177 b.

